




**TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2025- yil 1- noyabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (*dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno*) 45 197 tani tashkil etdi, shundan 39 047 tasi yoki 86,4 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan korxona va tashkilotlar soni o'sishi 104,9 % ni, jumladan kichik biznes va mikrofirmalarda – 105,6 % ni tashkil etdi.





Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- noybar holatiga)

Yillar	Korxonavatashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		tadbirkorlik subyektlari	kichikbiznes subyektlari
2025	45 197	39 424	39 047
2024	43 086	37 321	36 967
2023	45 582	39 601	39 266
2022	54 396	48 472	48 132
2021	51 455	45 655	45 333

Hududlar bo'yicha eng ko'p korxona va tashkilotlar Zangiota (*jami faoliyat ko'rsatayotganlarning 11,5 foizi*), Qibray (8,7%), Toshkent (7,0%), Parkent (6,2%) tumanlari va Chirchiq shahar (6,6%) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Zangiota (12,3 %), Toshkent (7,3 %), Qibray (8,9%) Parkent (6,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		tadbirkorlik subyektlari	kichikbiznes subyektlari
Zangiota t	5 200	4 846	4 809
Qibray t	3 918	3 498	3 461
Toshkent t	3 183	2 882	2 865
Chirchiq sh	2 991	2 630	2 590
Parkent t	2 801	2 498	2 486
Bo'stonliq t	2 499	2 137	2 112
Angren sh	2 425	2 081	2 048
Yuqorichirchiq t	2 255	1 986	1 970
Yangiyo'l t	2 130	1 834	1 816
O'rtachirchiq t	1 966	1 722	1 708
Olmalik sh	1 894	1 639	1 615
Yangiyo'l sh	1 506	1 326	1 320
Bekobod sh	1 433	1 220	1 209
Quyichirchiq t	1 406	1 192	1 182
Bekobod t	1 392	1 154	1 148
Ohangaron t	1 315	1 089	1 072
Bo'ka t	1 259	1 042	1 038
Chinoz t	1 222	995	988
Oqqo'rg'on t	1 148	951	945
Nurafshon sh	1 136	893	879
Piskent t	1 094	896	888
Ohangaron sh	1 024	913	898



Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Savdo tarmog'ida qolmoqda, uning ulushi 2025- yil 1- noyabr holatiga 33,7 foizni tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda, Boshqa turlar 22,8 foizni, uchinchi o'rinda Sanoat 14,9 foizni tashkil qildi. Ushbu uch turdagi iqtisodiy faoliyat turlari faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 71,6 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonavat ashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	kichikbiznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 943	3 897	3 868
Sanoat	6 732	6 719	6 582
Qurilish	2 693	2 676	2 656
Savdo	15 226	15 225	15 161
Tashishvasaqlash	1 422	1 419	1 396
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 219	3 206	3 189
Axborotvaaloqa	768	725	719
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	908	768	751
Boshqaturlar	10 286	4 789	4 725

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar (1- noyabr holatiga)

2025- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, 39 424 ta faol tijorat korxonalaridan 32 460 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlari bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (1- noyabr holatiga)


Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlarisoni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatani ulushi (% da)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	32 460	82,3
Xususiy korxonalar	3 425	8,7
Oilaviy korxonalar	3 292	8,4
Aksiyadorlik jamiyati	46	0,1
Boshqalar	201	0,5

Shundan kelib chiqib, MCHJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(1- noyabr holatiga birlikda)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 2 253 ta korxonalardan 476 tasi qo'shma korxonalar va 1 777 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.





***Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ma'lumotlar***

2025- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024- yilning mos davriga nisbatan 461 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 625 tadan 861 taga (o'sish 236 taga), axborot va aloqa sohasida 56 tadan 111 taga (o'sish 55 taga) va qurilish sohasida 80 tadan 129 taga (o'sish 49 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Jami:	2 253	476	1 777
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	87	35	52
Sanoat	792	245	547
Qurilish	129	22	107
Savdo	861	91	770
Tashishvasaqlash	35	9	26
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	42	7	35
Axborotvaaloqa	111	3	108
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	10	7	3
Boshqaturlar	186	57	129

***Ayrim davlatlar kesimida foliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari
ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (1- noyabr holatiga)***

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 980 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 43,3 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (9,4 %), Turkiya (10,3 %), Qozog'iston (4,1 %) va Janubiy Koreya (3,2 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Jami:	2 253	476	1 777
Xitoy Xalq Respublikasi	980	53	927
Turkiya Respublikasi	234	18	216



Rossiya Federatsiyasi	213	34	179
Qozog'iston Respublikasi	90	15	75
Janubiy Koreya Respublikasi	66	14	52
Afg'oniston	39	1	38
Tojikiston Respublikasi	33	1	32
Birlashgan Arab Amirli	27	11	16
Hindiston Respublikasi	21	5	16
Amerika Qo'shma Shtatlari	18	4	14
Qirg'iziston Respublika	18	4	14
Singapur Respublikasi	18	6	12
Pokiston Islom Respublikasi	17		17
Turkmaniston	16	1	15
Belorussiya Respublikasi	15	2	13
Boshqa davlatlar	448	307	141

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentyabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri—real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
I. Boltayev
71 203-45-00 (4560)

Maznil:
100198, Toshkent v.,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90-uy